

**YOSH AVLODNI AXLOQIY TARBIYALASHDA MAKTAB
VA OILANING HAMKORLIGI**

Najmidinov Davronbek

*Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimiga qarashli
Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi tarbiyachisi.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh avlodni axloqiy jihatdan yetuk shaxs etib tarbiyalashda maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi, bu ikki muhim ijtimoiy institutning vazifalari, o‘zaro aloqalari hamda ularning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy tarbiya jarayonida ota-onalar va pedagoglarning birligidagi harakatlari orqali farzandlarda ijobiy fazilatlarni shakllantirish yo‘llari tahlil qilingan. Amaliy misollar asosida samarali hamkorlikning afzalliklari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Axloqiy tarbiya, maktab, oila, hamkorlik, yosh avlod, ota-onsa, pedagog, ijtimoiy institut, ijtimoiylashtirish, ma’naviy qadriyatlar.

Zamonaviy jamiyatning tez sur’atlar bilan rivojlanishi, turli sohalardagi faoliyatlarning tobora murakkablashib borayotgani inson tafakkuri, dunyoqarashi va ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu holat, o‘z navbatida, inson shaxsining mavjud bilim va ko‘nikmalar, kasbiy mahorati hamda malakalari yetarli emasligini namoyon etmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda odamlar estetik did, intellektual farosat, odob-axloq va emotsiyonal madaniyat kabi tarbiyaviy sifatlarga ko‘proq ehtiyoj sezishmoqda. Bu kabi insoniy fazilatlar esa tasodifiy shakllanmaydi, balki ular eng avvalo, oilada poydevor topadi.

Shubhasiz, estetik, axloqiy va ma’naviy tarbiya kundalik hayotning ajralmas ehtiyojiga aylanmoqda. Ushbu tarbiya elementlari aynan oilaviy muhitda shakllanib, keyinchalik ijtimoiy tarbiya orqali mustahkamlanadi. Oilaviy tarbiya va ijtimoiy tarbiyaning o‘zaro uyg‘unligi, bir-birini to‘ldiruvchi xususiyati orqali shaxsda komil inson fazilatlari shakllanadi. Bu esa, albatta, tarbiyada yuksak natijalarga erishishga xizmat qiladi.

Pedagogik nuqtai nazardan qaralganda, oilaviy tarbiya eng dolzarb va murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o‘ziga xos ijtimoiy guruh bo‘lib, u yerda bolani tarbiyalashda aynan o‘sha guruhga xos xususiyatlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Oila — bu shaxs kamoloti bosqichlarining ilk maydoni, unda bola birinchi bor mehr, e’tibor, odob-axloq, insoniy qadriyatlar bilan tanishadi.

O‘zbek xalqi uzoq tarix davomida boy ma’naviy va tarbiyaviy meros yaratgan. Bu meros bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan, balki aksincha, yangi avlodni insonparvarlik, vatanparvarlik, yuksak axloq va mehr-oqibat ruhida

tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Hozirgi zamonning murakkab va tez o‘zgaruvchan sharoitida bolalarning zamon talablariga mos bilim olishlari, hunar o‘rganishlari, mustaqil fikrlay oladigan yetuk shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun eng avvalo ota-onalar javobgardir. Zero, tarbiyaning negizi oiladan boshlanadi. Oila — bu jamiyatning ilk tayanch nuqtasi, insonparvarlik maktabidir. Shu boisdan, oilaviy tarbiya mustahkam bo‘lsa, jamiyatning kelajagi porloq bo‘ladi.

Ya’ni. yosh avlod tarbiyasi har doim jamiyatning dolzarb masalasi bo‘lib kelgan. Ayniqsa, globallashuv va texnologik o‘zgarishlar davrida bolalarning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Bu borada maktab va oilaning o‘zaro hamkorligi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Har ikki muassasa farzand shaxsining shakllanishida asosiy zamin bo‘lib xizmat qiladi.

Oila – bolaning ilk ijtimoiylashuvi boshlanadigan muhitdir. Bu yerda u mehr-muhabbat, hurmat, sabr, halollik kabi qadriyatlarni o‘rganadi. Ota-onaning namunali xulqi, oiladagi sog‘lom muhit farzandning axloqiy yetukligiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Oiladagi salbiy muhit, ya’ni ota-onaning farzandlariga befarqlik bilan munosabatda bo‘lishi, o‘zaro doimiy nizolar, janjallarning mavjudligi bolalarning sog‘lom tarbiyasi va psixologik rivojlanishiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oila — bolaning ilk tarbiya maskani bo‘lib, aynan shu muhitda bola ilk bor hayotiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va insonlar bilan muomala madaniyatini o‘zlashtira boshlaydi.

Afsuski, ba’zi ota-onalar farzandlariga nisbatan ortiqcha e’tibor va erkalik bilan yondashib, ularning har qanday istaklarini hech qanday chegaralarsiz qondirishga harakat qilishadi. Bu esa bolalarda nazoratsizlik, o‘zini tutolmaslik, o‘jarlik va hattoki mas’uliyatsizlik kabi salbiy fazilatlarning shakllanishiga olib kelishi mumkin. Vaqt o‘tgan sari bu holat ularning jamiyatdagi tutgan o‘rniga, atrofdagilar bilan munosabatlariga ham salbiy ta’sir etadi — bola hayotga tayyor bo‘lmagan, tartib-intizomdan yiroq, muammoli shaxs sifatida voyaga yetadi.

Shunday salbiy oqibatlarning oldini olish uchun, biz — kattalar, ota-onalar, tarbiyachilar va ustozlar — yosh avlodga sog‘lom,adolatli va izchil tarbiya berishga mas’ulmiz. Ularning qalbiga bolalikdanoq halollik, rostgo‘ylik, insof, hurmat va sabr-toqat kabi umumbashariy fazilatlarni singdirish lozim. Farzandlarimizga mehr-muhabbat bilan yondashish, ularni tinglash, tushunish, ammo ayni paytda hayotiy qoidalarga rioya qilishga o‘rgatish — ularning komil inson bo‘lib voyaga yetishida muhim poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Yaxshi tarbiya — bu faqat yaxshi so‘zlar emas, balki oila a’zolarining o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlari, bolaga berilayotgan ijobiy namuna va hayotiy saboqlardir. Har bir bola sog‘lom va mehrli oilaviy muhitda ulg‘ayishga haqli. Shu bois, kelajak jamiyatining barkamol insonlarini tarbiyalash yo‘lida oila muhitini yaxshilash, tarbiya jarayonida muvozanatni saqlash eng muhim vazifalarimizdan biri hisoblanadi.

Maktab faqat bilim beruvchi emas, balki axloqiy tarbiya beruvchi muhim muassasadir. O‘qituvchilar o‘quvchilarning jamiyatda munosib o‘rin egallashlari uchun ularning ongiga ijobiylar qadriyatlarni singdiradilar. Dars jarayonida, sinfdan tashqari ishlarda, maktab tadbirdalarida axloqiy mezonlarga amal qilish orqali o‘quvchilar tarbiyalanadi.

Agar oila va maktab o‘zaro hamkorlikda ishlasa, bola ikki asosiy muhitda bir xil yo‘nalishda tarbiyalanadi. Bu esa tarbiya samaradorligini oshiradi. Masalan, maktabda halollik va intizom targ‘ib qilinsa, oilada esa bunga zid harakatlar bo‘lsa, bola ichki ziddiyatga tushadi. Shu bois maktab va oila bir yo‘nalishda harakat qilishi kerak.

Buyuk donishmandlardan birining quyidagi hikmatli so‘zlari barchamiz uchun ibrat bo‘lishi kerak: “Agar sen bir yilni o‘ylasang — bug‘doy ek, natijasini kuzda olasan. O‘n yillikni ko‘zlasang — bog‘ yarat, u senga bir necha yil ichida meva beradi. Ammo agar sen kelajak haqida chin dildan qayg‘ursang — farzandlarga to‘g‘ri tarbiya ber”. Bu so‘zlarda chuqur ma’no yotibdi. Ya’ni, inson o‘z kelajagini o‘ylasa, avvalo nasliga, ya’ni bolalariga mehr, bilim, odob va axloq berishga intilmog‘i lozim. Chunki bola bugun qanday tarbiya olsa, ertaga aynan shuni hayotda namoyon etadi.¹

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni axloqiy barkamol qilib tarbiyalash – bu butun jamiyatning kelajagiga asos solish demakdir. Bu mas’uliyatni faqat maktab yoki faqat oila zimmasiga yuklash noto‘g‘ri. Aksincha, bu ikki muassasaning samarali va uyg‘un hamkorligigina har tomonlama yetuk, ma’naviy boy avlodni voyaga yetkazishga xizmat qiladi. Har bir ota-onasi va o‘qituvchi o‘z vazifasini sidqidildan bajarsa, kelajak avlod axloqan pok, ma’naviy yetuk, Vatanga sadoqatli bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova N. “Pedagogik mahorat”. – T.: O‘qituvchi, 2021.
2. Xudoyerberdiyev A. “Oila va maktab hamkorligi asosida tarbiya jarayonini tashkil etish”. – Pedagogika jurnali, 2022.
3. Saidov Z. “Milliy qadriyatlар va yoshlar tarbiyasi”. – T.: Fan va texnologiya, 2020.

¹ Saidov Z. “Milliy qadriyatlар va yoshlar tarbiyasi”. – T.: Fan va texnologiya, 2020.